IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

GRUNT SUVINING HOSIL BO'LISHI VA GIDROGEOLOGIK JIHATLARI

Bekzod Umarov Baxtiyorjon o'g'li

Shamshidinova Mushtariy Pattojon qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya

Maqolada sayyoramizdagi grunt suvlarining ekologik holati, u suvlarni tozalash va foydalanish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan.Grunt suvlarining hosil bo'lishi ularning dinamik miqdori,iqlim va tuproqning yer osti suvlariga ta'siri haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar

Satx, grunt suvlari, yer po'sti, ifloslangan suvlar, g'ovak jinslar, kasallik tarqatuvchi bakteriyalar, mexanik tarkib,

Аннотация

В данной статье представлена научная информация об экологическом состоянии подземных вод на поверхности земли, о работах, которые следует провести по их очистке и использованию для питьевых и ирригационных целей.

Ключевые слова

Грунтовые воды, корка, загрязненная вода, пористые породы, болезнетворные бактерии, механический состав, диарея, фильтрация.

Annotation

This article provides scientific information on the ecological status of ground water on the surface of the earth, the work that should be done on cleaning it and using it for drinking and irrigation purposes.

Key words


Ground water, crust, polluted water, porous rocks, disease-spreading bacteria, mechanical composition, diarrhea, filtration

Kirish

Grunt suvlari — yer yuzasidan pastda, birinchi suvli tog‘ jinslari g‘ovaklarida yig‘ilgan suv. Grunt suvlari o‘zidan suv o‘tkazmaydigan ikkinchi qatlam ustida bo‘ladi. Bu qatlam gil tuproq, yaxlit ohaktosh, otqindi hamda metamorfik jinslardan iborat bo‘lishi mumkin. Grunt suvlari yer yuzasidan kanal, daryo, yog‘in suvlari, atmosferadagi suv bug‘larining (quyuqlashganidan keyin) tog‘ jinslari g‘ovaklaridan pastga tushib, suv o‘tkazmaydigan qatlamda yig‘ilishidan paydo bo‘ladi. Grunt suvlari daryo vodiylaridagi allyuvial yotqiziqlar (qum, qumtuproq, shag‘al) hamda muzliklarning surilishi natijasida yotqizilgan tog‘ jinslari va sahrolardagi dyun yotqiziqlari g‘ovaklarini to‘ldirib turadi. Shahar va sanoatni toza suv bilan ta’minlashda grunt suvlari goho asosiy

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston hududida grunt suvlarining paydo bo‘lishi, tarqalishi va ularni qidirish hamda ishlatish uslublari G‘. O. Mavlonov, O. K. Lange, N. A. Kenesarin, U. M. Ahmedsafin va b. tomonidan ishlab chiqilgan. Grunt suvlarining tuyinish maydoni tarqalish maydoniga mos keladi. Tabiiy sharoitlarda grunt suvlari yuzaki suvlardan farqli o`laroq, uzoq vaqt mavjud bo`ladi.



Suv singdiradigan qatlamning grunt suvlarini saqlovchi qismi suvli gorizont deb ataladi. Grunt suvlarining yuzasi satx deyiladi. Grunt suvlarining satxidan suv o`tkazmaydigan qatlamgacha bo`lgan masofa suvli gorizontning qalinligi, yer yuzasidan grunt suvlarining satxigacha bo`lgan masofa ularning satx chuqurligi deyiladi. Grunt suvlari quyidagi xususiyatlari bilan yuzaki suvlardan farq qiladi:

1) Grunt suvlari atmosfera bilan uzviy bog`liq bo`lganligi uchun uning satxi - ozod bosimsiz yuzaga egadir. Burg` quduqlari bilan ochilgan suv satxi yuqoriga ko`tarilmasdan o`z joyida qoladi. Shuning uchun ham grunt suvlarining satxi yer yuzasi relyefini qiyosiy takrorlaydi;

2) Grunt suvlari yer yuzasidagi suv havzalari, daryolar, ko`llar, botqoqliklar, sun`iy dengizlar bilan gidravlik bog`liq bo`ladi

3) Grunt suvlarining sarfi, satxi va kimyoviy tarkibining o`zgarishi yer yuzasidagi suv havzalari holatiga va iqlimiy faktorlarning o`zgarishiga bog`liq;

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

4) Grunt suvlarining sarfi va kimyoviy tarkibi, fizik xususiyatlari yil davomida deyarli o`zgarmaganligi sababli shahar va qishloqlarni doimo suv bilan ta`minlash uchun yaroqli hisoblanadi.

Grunt suvlari suv o`tkazmaydigan qatlam nishabligi bo`yicha harakat qilib, jarlik va daryo o`zanlarida yer yuzasiga sizib chiqadi va buloqlar hosil qiladi. Yer osti suvlari tog` jinslari orasida harakat qilganligi sababli ularning tezligi ham har xil bo`ladi. Grunt suvlari yer yuzasining tuzilishiga qarab har xil chuqurlikda yotadi. Masalan, pasttekislik joylarda 1-2m dan 5-10m gacha, tog`lik oldi zonalarida esa 15-20m dan 40-50m gacha chuqurlikda bo`lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ko’rib turganimizdek yer yuzasida relyef balandlashib borgan sari yer osti suvlari satxi pastlab boradi.Buning natijasida chuqurda joylashgan grunt suvlari yer yuzasini kam sho’rlanishining asosiy omilidir.Grunt suvlari gidrogeologik jihatdan yer betiga yaqin joylashsa yerlarning sho’rlanishi ortib boradi.Buning natijasida tuproq unumdorligi kamayadi.Bularni oldini olish uchun yerlarni to’g’ri sug’orish lozim.

Vaqtida agrotexnik tadbirlarni olib borish shuningdek, ishlov beriladigan yerlarni maydonini tadrijiy oshirib borish barqaror rivojlanishning asosiy omili bo’lib xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alixonov.B.B O`zbekiston Respublikasida atrof muhit holoti va tabiiy resurslardan foydalanish to`g`risida milliy ma`ruza T.2008 Y.
2. P.Gulyamov,M.Avezov,N.Saidova,TOSHKENT «MITTIYULDUZ» 2020 5-geografiya darsligi\
3. S.Mustafoyev, S.O’roqov, P.Suvonov. Umumiy ekologiya. Darslik.O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, T:. 2006. 400 b

WORDLY KNOWLEDGE